

“Fan va turmush” jurnalining navbatdagi 2022-yil 1-soni nashrdan chiqdi

Aziz obunachilar!

“Fan va turmush” jurnalining navbatdagi 2022-yil 1-soni nashrdan chiqdi.



ФАН ВА ТУРМУШ **1**
2022
www.fvat.uz

Наука и жизнь Узбекистана

*Аниқ вақт Ғалаба учун!
Точное время для Победы!*

*Тошқи цивилизациялар
сони қанча?
Где вы, братья по
разуму?*

*Қора ўранинг
тасири олинди!
Получено изображение
черной дыры!*

*Қоятош расмлари
нима мақсадди
чизилган?*

Jurnal sahifalarida O'zbekistonda xavfli virusli kasalliklarga qarshi qanday choralar ko'rilgani, endilikda

“muloyim qotillar” – V va C gepatiti viruslaridan qoʻrqmasdan yashash mumkinligi haqida qiziqarli materiallar berilgan.

1941-yilda urushning eng ogʻir kunlarida butun sobiq Sovet Ittifoqi aniq vaqt signallariz qoldi. Toshkent observatoriyasidan toʻgʻridan-toʻgʻri butun mamlakat va frontga aniq vaqt signallari qanday uzatilgani va eski shaharlik usta oʻz davrining eng aniq soatining qalpogʻini qanday taʼmirlagani haqida bilib olasiz.

Soat mavzusi bundan roppa-rosa 75 yil muqaddam toshkentliklar birinchi marta “malinali” qoʻngʻiroq jarangini eshitgani haqidagi hikoya bilan davom etadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Toshkentga soat-kurant olib kelingan Allenshtayn shahri bugungi kunda qanday nomlanadi. Va bu shahar "Erni toʻxtatgan va Quyoshni harakatga keltirgan" Nikolay Kopernik bilan qanday bogʻliq, va nima uchun qoʻngʻiroqlar jarangi “malinali” deb ataladi va 1966-yilgi zilzila paytida qoʻngʻiroqlardan biri buzilganidan keyin uning jarangini kim tikladi.

Koinotda bizga oʻhshagan qancha sivilizatsiyalar boʻlishi mumkin, ular nega biz bilan aloqaga chiqishmayapti?! Oʻzbekistonlik yosh havaskor-tadqiqotchilar Kepler 18b sayyorasiga qanday qilib va qaerdan radioxabar yuborishmoqchi?

Qadim odam toshqoyalarga rasm chizib qanday orzularni, his-tuygʻular va tasavvurlrni ifodalamoqchi boʻlgan?

Alisher Navoiy nega bir gadoning bir baytini “sotib olgan” va shundan keyin qaysi gʻazalini yozgan?

e sonini eshitganmisiz? Uning yordamida qancha daromad olishingizni aniq hisoblab boʻladimi?

Jurnalimiz materiallaridan astronomlar bizning Galaktika– Somon yoʻli markazidagi Qora oʻra sharpasini birinchi marta qanday suratga olgani bilan tanishasiz.

Bu va boshqa koʻplab maʼlumotlarni Oʻzbekistondagi yagona ilmiy-ommabop jurnal – "Fan va turmush" ning telegram kanalidagi sahifasidan kuydagi adresdan https://t.me/fan_va_turmush bilib olasiz!

"Fan va turmush" jurnaliga obuna boʻling, bunga hech afsuslanmaysiz. Biz ishonchingizni albatta oqlaymiz!
"Fan va turmush" jurnalining obuna indeksi 899.